

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

AZIMOVA FERUZA XUJAMKULOVNA

NEFT-GAZ SANOATIGA OID TERMINLARNI O‘QITISHDA
TALABALARNING STRATEGIK KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

Оглавление автореферата докторской диссертации

Contents of the abstract of doctoral dissertation

Azimova Feruza Xujamkulovna

Neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o‘qitishda talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirish.....3

Azimova Feruza Xujamkulovna

Развитие стратегических компетенций у студентов в преподавании терминов нефтегазовой отрасли.....27

Azimova Feruza Xujamkulovna

Development of strategic competence of students in teaching terms relating to the oil and gas industry.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

AZIMOVA FERUZA XUJAMKULOVNA

NEFT-GAZ SANOATIGA OID TERMINLARNI O‘QITISHDA
TALABALARNING STRATEGIK KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2023.3.PhD/Ped4955 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.uswlu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kulmatov Baxrom Gulyamovich,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sabirova Gulnoza Sadikovna,
pedagogika fanlari doktori
(DSc), dotsent

Ashurov Alisher Abdimavlanovich,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «___» _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi.)

L.T. Axmedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

A.B. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.d., (DSc), dotsent

K.Sh. Muradkasimova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
p.f.d., (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda neft va gaz sanoatining bozor qonuniyatlari asosida rivojlanishidagi raqobat uchun sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish, tashish, qayta ishlash samaradorligini oshirishda mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, neft va gaz sanoatini raqamlashtirish, texnologik jarayonlarni modellashtirishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Neft-gaz sanoati mutaxassislarni tayyorlash, terminlarni o'qitish, neft-gaz sanoatining samarali faoliyat yuritishi uchun huquqiy asos yaratish, innovatsion boshqaruv tamoyillarini joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ahamiyat kasb etadi.

Dunyo amaliyotida strategik yondashuv orqali neft-gaz sanoati terminologiyasini guruhlashtirish, kommunikativ va o'quv strategiyalarini amalda qo'llash alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan neft-gaz sanoati mutaxassislarning strategik kompetensiyalarini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni, korporativ boshqaruvning zamonaviy tamoyillarini joriy etish zaruriyatini izohlaydi.

Mamlakatimizda konchilik – neft va gaz sanoati, energetika, oltin qazib olish va rangli metallurgiya boshqa tarmoqlari, kimyoviy tola, plastmassalar ishlab chiqarishni rivojlantirish ko'lamlarini kengaytirish orqali respublikaning mazkur tarmoqlari mahsulotiga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash bilan birga, valyuta tushumlarini ko'paytirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi texnologiyalarni o'rganish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, hamda malakali mutaxassislarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bunda neft-gaz sanoati yo'nalishi talabalarda sohaviy terminologiya orqali strategik kompetensiyasini rivojlantirish, guruhlashtirish, kommunikativ va o'quv strategiyalari bo'yicha neft-gaz sanoati terminologiyasini topshiriqlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 12-oktabrdagi PF-169-son "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari

to'g'risidagi" Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-maydagi 174-son "Oliy ta'lim tizimi uchun xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlar xarid qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 30-sentyabrdagi 616-son "Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 19-yanvardagi 34-son "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda ingliz tilini o'qitish metodikasi bo'yicha F.M.Rashidova, F.SH.Alimov, B.G.Kulmatov, I.M.Tuxtasinov, M.A.Nazarovalar; sohaviy terminlarni o'qitish bo'yicha F.Abdullayeva, A.Ashurovlar; sohaviy terminlarning lingvistik xususiyatlari bo'yicha SH.Abdullayeva, D.X.Kadirkbekova, O.Axmedov, X.Paluanovalar; neft-gaz sanoatiga oid Sh.V.Vahobov, A.S.Kucharov, D.N.Ishmanov, B.N.Hamidov, S.F.Fozilov, SH.M.Saydaxmedov, B.A. Mavlanovalar ilmiy -tadqiqot ishlarini olib borishgan¹.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) tadqiqotchi olimlar tomonidan strategik kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha G.V.Axmetjanova, T.V.Yemelyanova, Y.V.Semenova, G.Ye.Utebaliyeva, R.M.Yesbulatova,

¹ Рашидова Ф.М. Совершенствование концептуально-усулических основ внедрения в систему непрерывного образования Узбекистана (на примере английского языка): Дис. ... док. пед. наук. – Т., 2017. – 309 с.; Alimov F.Sh. Ingliz tilida yozuv kompetensiyasini shakllantirish (nofilologik fakultetlar misolida): Avtoref. dis. ... ped. fan. bo'yicha falsafa dok. – Toshkent, 2018. – 41 b.; Kulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish: Avtoref. ... dis. ped. fan bo'yicha falsafa dok. – T., 2018.; Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish: Avtoref. dis. ... ped. fan. dok. – Toshkent, 2018. – 23 b.; Nazarova M.A. Ingliz tilidagi matnlarni o'qishda talabalarni leksik polisemiyaga o'rgatishni takomillashtirish: Avtoref. ... dis. ped. fan bo'yicha falsafa dok. – Toshkent, 2018. – 46 b.; Abdullayeva F. Yuridik terminlarni o'qitishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish (ingliz tili misolida): Avtoref. ped. fanlari bo'yicha falsafa dok. – Toshkent, 2018. – 49 b.; Abdullayeva Sh.N. G'aznachilik sohasida qo'llaniladigan moliyaviy-iqtisodiy terminlarning chog'ishtirma tadqiqi (ingliz, o'zbek, rus tillari misolida): Avtoref. ped. fanlari bo'yicha falsafa dok. – Toshkent, 2018. – 58 b.; Kadirkbekova D.X. Inglizcha-o'zbekcha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari: Avtoref. diss. ... filol. fan. bo'yicha fal. dok. – Toshkent, 2017. – 44 b. – B. 10-11.; Axmedov O.S. Ingliz va o'zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari: Avtoref. dis. ... filol. fan. dok. – Toshkent, 2016. – B.27.; Paluanova X.D. Ingliz, o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ekologik terminlarning derivation-semantik prinsiplari: Avtoref. dis. ... filol. fan. nom. – Toshkent, 2016.; Vahobov Sh.V. Neft va gaz sanoatida ishlab chiqarishni resurslardan foydalanish usullarining ilmiy-nazariy asoslari // Экономика и социум. 2021. №11-1 (90). Электрон ресурс: <https://cyberleninka.ru/article/n/neft-va-gaz-sanoatida-ishlab-chi-arishni-resurslardan-foydalanish-usullarining-ilmiy-nazariy-asoslari>. Murojaat sanasi: 07.11.2022.; Kucharov A.S., Ishmanova D.N. O'zbekiston Respublikasi neft-gaz sanoatini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – № 2. mart-aprel, 2021-yil.; Hamidov B.N., Fozilov S.F., Saydaxmedov Sh.M., Mavlanov B.A. Neft va gaz kimyosi. Darslik. – Toshkent: Muharrir, 2014. – 596 b.

S.Kalininalar; kompetensiya va kommunikativ yondashuvni V.Zaysev, E.F.Zeyer, T.I.Timofeyeva, Ye.V.Kompansevalar; xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha tadqiqotlarni V.A.Artyomov, V.V.Denisova, T.S.Putilovskaya, M.K.Kolkova o'rganishgan².

Yevropa mamlakatlarida neft-gaz sanoatiga oid terminlar bilan V.Evans, J.Dooley, J.Kovacs, Haghighat Alireza Seyed, Frendo Evan, Bonamy Davidlar; talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirish masalalari bilan D.Nunan, Rigoberto Castillo, Zoltán Dörnei, Sarah Thurrell, A.U.Chamot, P.Barnhartdt, Beard El-Dinary, J.Robbins, S.Harvey, A.Goudvis, J.A.Livingston, M.Lessard-Clouston, J.M.O'Malleylar; kommunikativ kompetensiya bilan W.M.Rivers, Hutmacher Walolar; xorijiy tillarni o'qitish R.Castillo, T.Scovel, H.D.Brown, A.D.Cohen, E.Olshtain, S.Kucer, Lansford Lewislar shug'ullanishgan³.

² Ахметжанова Г.В., Емельянова Т.В., Семенова Ю.В. Повышение уровня развития стратегической компетенции студентов колледжа // МНИЖ. 2021. №1-4 (103). Электронный ресурс: <https://cyberleninka.ru/article/n/povyshenie-urovnya-razvitiya-strategicheskoy-kompetentsii-studentov-kolledzha>. Дата обращения: 10.06.2023.; Утебалиева Г.Е., Есбулатова Р.М. Стратегическая компетенция как объект исследования в лингвистике // Вестник КазНУ. Серия филологическая. – № 4 (156). 2015. – С. 54-58. – С. 57.; Калинина С. Сущностные характеристики термина в сфере его функционирования (на материале периодики и узкоспециализированной литературы англоязычной нефтегазовой терминосистемы). *suschnostne-harakteristiki-termina-v-sfere-ego-funktsionirovaniya-na-materiale-periodiki-i-uzkospetsializirovannoy-literatury-angloyazychnoy-neftegazovoy-terminosistemy.pdf*; Зайцев В. Формирование ключевых компетенций учащихся // Сельская школа. – 2009. – № 5. – С. 28-35.; Зеер Э.Ф. Компетентностный подход к образованию // Образование и наука. Известия Уральского отделения Российской академии образования. – 2005. – С. 27-40.; Тимофеева Т.И. Формирование коммуникативной компетенции студентов в коммуникативной деятельности в процессе обучения иностранному языку. Монография. – Ульяновск: УлГТУ, 2011. – 136 с.; Компанцева Е.В. Структура и содержание коммуникативной компетенции при обучении иностранным языкам. Электронный ресурс: http://www.superinf.ru/view_helpstud.php?id=4018. Дата обращения: 18.12.2022.; Артёмов В.А. Речевой поступок // Преподавание иностранных языков. Теория и практика. – М., 1971. – 264 с.; Денисова В.В., Путиловская Т.С. Фонд оценочных средств по дисциплинам Иностранный язык и Иностранный язык профессионального делового общения. (Бакалавриат). Учебное пособие; Колкова М.К. Методика обучения иностранным языкам в средней школе: пособие для учителей, аспирантов и студентов. – СПб.: КАРО, 2008. – 224 с.

³ Evans V., Dooley J., Kovacs J. Career Paths. Natural Gas I. Express Publishing, 2016. – 120 p.; Evans Virginia, Dooley Jenny, Haghighat Alireza Seyed. Petroleum II. Express Publishing, 2013. – Book 1: 38 pages. Book 2: 40 pages. Book 3: 41 pages.; Frendo Evan, Bonamy David. English for the Oil Industry 1 CD. – Longman, 2011.; Nunan D. (1997). Strategy training in the language classroom: an empirical investigation // Relc Journal. – Vol. 28. – № 2. – P. 56-81.; Rigoberto Castillo. Strategic knowledge and strategic competence // Doctorado Interinstitucional en Educación – DIE. – P. 121-138. – P. 122.; Zoltán Dörnyei, Sarah Thurrell. Strategic competence and how to teach it // ELT Journal. Volume 45/1. January 1991. Oxford University Press, 1991. Электрон ресурс: Strategic competence and how to teach it (psu.edu); Chamot A.U., Barnhartdt P., Beard El-Dinary & Robbins J. (1999). The learning strategies handbook. – NY: Longman.; Harvey S., Goudvis A. (2000). Strategies that work: Teaching comprehension to enhance understanding. – Portland: Stenhouse Publishers.; Livingston J.A. Effects of metacognitive instruction on strategy use of college students: unpublished manuscript. – Buffalo: State University of New York, 1996. – 349 p.; Lessard-Clouston M. (1997). Language learning strategies: An Overview for L2 Teachers // The Internet TESL Journal. Available at: <http://iteslj.org/Articles/Lessard-Clouston-Strategy.html>. Access date: 17.12.2022.; O'Malley J.M. Learning Strategies in Second Language Acquisition. – Cambridge: Cambridge University Press. – 1990. – 412 p.; Rivers W.M. From Linguistic Competence to Communicative Competence // TESOL Quarterly. – 1973. – № 1. – Vol. 7. – С. 43.; Hutmacher Walo. Key competencies for Europe // Report of the Symposium Berne, Switzerland 27-30 March, 1996. Council for Cultural Co-operation (CDCC) a Secondary Education for Europe. Strasburg, 1997.; Castillo R. (1991). Teaching learners to learn // English Teaching Forum, 29 (3). Washington: USIA.; Castillo R. (2000). Pitfalls in writing academic reports // How Journal. Colombia: Asocopi.; Scovel T. The Effect of Affect on Foreign Language Learning: A Review of the Anxiety Research // Language Learning. – 1978. – № 28. – P. 129-142.; Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – N.Y.: Pearson, 1980. – 340 p.; Cohen A. Cognitive and motivational aspects of action: Selected

Neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitish metodikasi, neft-gaz sanoatining o'ziga xos xususiyatlari, strategik kompetensiyaning tipologik tasnifini o'rganish zarurati tadqiqotimiz mavzusini belgilab berdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o'rtasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlari" bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitishda talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

neft-gaz sanoatiga oid terminlarni tasniflash va tipologiyasini aniqlash, talabalar strategik kompetensiyasining komponentlarini tahlil qilish;

neft-gaz sanoatiga oid terminologiyani o'qitish jarayonida didaktik vositalar orqali mashq va topshiriqlardan foydalanish metodikasini taklif qilish;

amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitish bo'yicha talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimini nutq faoliyatining to'rt turini integratsiyalash asosida ishlab chiqish;

pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o'tkazish va tadqiqot natijalari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitishda quyi bosqich talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmetini neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitishda talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni, shakl, vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqotda nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellash), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik usullar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq.)dan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

neft-gaz sanoatiga oid terminlarning kontekstual va umumiste'mol qo'llanilishdagi farqli xususiyatlarini tasniflash mezonlariga tayanadigan tipologiya, til materialini ongli tanlash va maqsadli qayta ishlash jarayonida faollashuvchi psixolingvistik mexanizmlarni kompetensiyaviy-integrativ

semasiologik tashkilot doirasida algoritmik va mantiqiy asosda semantik reprezentatsiya qilish orqali takomillashtirilgan;

neft-gaz sanoatiga oid autentik materiallar asosida yaratilgan o'qitish strategiyalari moduli, nutq faoliyati turlariga asoslangan o'qitish metodikasini kompetensiyaviy tashkil etish hamda pragmatik maqsadni ongli shakllantirishga xizmat qiluvchi funksional-semantik birliklar ierarxiyasi va til hamda tafakkurning integral shakllarini faollashtiruvchi semantik konstruksiyalar asosida strukturalash orqali takomillashtirilgan;

autentik materiallar asosida neft-gaz sanoatiga oid terminlarning sintaktik-derivatsion xususiyatlarini aniqlash orqali, ularni o'qitish jarayonida nutqiy niyatni shakllantirish va tahlil qilish mexanizmlarining funksional uyg'unligi strategik ongni faollashtirishga xizmat qiluvchi lingvistik kompetensiyani shakllantirishda amaliy samaradorlikka ega ekani ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

talabalarining nutqiy strategiyasini ongli rejalashtirishga xizmat qiluvchi verbal aks ettirish texnologiyasiga, strategik kompetensiyaning kommunikativ-funksional modelining metarefektiv boshqaruv komponentini integratsiya qilish orqali, til faoliyatini ichki tahlil etish va reflektiv monitoring qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik tizim takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitishda talabalarining strategik kompetensiyasini rivojlantirishning tashkiliy-metodik ta'minoti va "Uzbek-English dictionary" nomli elektron lug'ati yaratilgan;

neft-gaz sanoatini o'qitishda mashqlar va topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan;

neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitishda quyi bosqich 1-2-kurs talabalariga "English for oil and gas industry" nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan hamda "Neft-gaz sanoatiga oid terminlar" nomli mobil lug'at ilovasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bilish nazariyasi metodologiyasi hamda pedagogik ta'lim sohasidagi respublika va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanganligi; tajriba-sinov ishlarining tahlili va tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati strategik kompetensiya tushunchasi, turlari, o'quv strategiyasining asosiy belgilari, tamoyillari va shartlari, neft-gaz sanoatiga oid terminologiya, nazariy tipologiyasi, o'ziga xos xususiyatlari o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati nofilologik oliy ta'lim muassasalarida darslik, o'quv qo'llanma, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitish metodikasidan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitishda talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirishga oid olingan natijalar asosida;

neft-gaz sanoatiga oid terminlarning kontekstual va umumiste'mol qo'llanilishdagi farqli xususiyatlarini tasniflash mezonlariga tayanadigan tipologiya, til materialini ongli tanlash va maqsadli qayta ishlash jarayonida faollashuvchi psixolingvistik mexanizmlarni kompetensiyaviy-integrativ semasiologik tashkilot doirasida algoritmik va mantiqiy asosda semantik reprezentatsiya qilish orqali takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan "English for oil and gas industry" nomli o'quv qo'llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 27 martdagi 68-son ma'lumotnomasi). Natijada, neft-gaz sanoatiga oid terminlar tipologiyasi ishlab chiqilgan;

neft-gaz sanoatiga oid autentik materiallar asosida yaratilgan o'qitish strategiyalari moduli, nutq faoliyati turlariga asoslangan o'qitish metodikasini kompetensiyaviy tashkil etish hamda pragmatik maqsadni ongli shakllantirishga xizmat qiluvchi funksional-semantik birliklar ierarxiyasi va til hamda tafakkurning integral shakllarini faollashtiruvchi semantik konstruksiyalar asosida strukturalash orqali takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan OT-A1-118-raqamli "O'zbekiston Respublikasida ko'p qirrali madaniy ta'lim muhitida o'qitishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023 yil 5 avgustdagi IRD/23193-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quv strategiyalar neft-gaz sanoati bo'yicha ishlab chiqilgan;

autentik materiallar asosida neft-gaz sanoatiga oid terminlarning sintaktik -derivatsion xususiyatlarini aniqlash orqali, ularni o'qitish jarayonida nutqiy niyatni shakllantirish va tahlil qilish mexanizmlarining funksional uyg'unligi strategik ongni faollashtirishga xizmat qiluvchi lingvistik kompetensiyani shakllantirishda amaliy samaradorlikka ega ekani ilmiy jihatdan asoslab berishga oid taklif va tavsiyalardan 60721100-Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishining "Xorijiy til(ingliz tili) fani o'quv dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan(O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,fan va innovatsiyalar vazirligi oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi 2023-yil 28-noyabrdagi 02/02-01-170 sonli ma'lumotnoma).Natijada, o'quv strategiyalar neft-gaz sanoati bo'yicha ishlab chiqilgan.

talabalarning nutqiy strategiyasini ongli rejalashtirishga xizmat qiluvchi verbal aks ettirish texnologiyasiga, strategik kompetensiyaning kommunikativ -funktional modelining metarefleksiv boshqaruv komponentini integratsiya qilish orqali, til faoliyatini ichki tahlil etish va refleksiv monitoring qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik tizim takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan OT-A1-118-raqamli "O'zbekiston Respublikasida ko'p qirrali madaniy ta'lim muhitida o'qitishning samarali usullarini ishlab

chiqish va amaliyotga tatbiq etish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023 yil 5 avgustdagi IRD/23193-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quv strategiyalar neft-gaz sanoati bo‘yicha ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan 6 ta respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy matn 130 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning mavzusi va uning dolzarbligi asoslangan, maqsadi va vazifalari, ob’ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o‘qitishda talabalar strategik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari”**, deb nomlangan birinchi bobida strategik kompetensiya tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va turlari, neft-gaz sanoatiga oid terminlar tipologiyasi hamda o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kommunikativ kompetensiya tarkibiga lingvistik, sotsiolingvistik, ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy, diskurs, tayanch, kasbiy kompetensiyalar bilan birga strategik kompetensiyani o‘z ichiga oladi. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida strategik kompetensiya umume’tirof etilgan bo‘lsa ham “strategik kompetensiya” tushunchasida hali ham noaniqlik mavjud. Yillar davomida “strategik kompetensiya” tushunchasi vaqti-vaqti bilan tadqiqotchilarning e’tiborini tortadi. Strategik kompetensiyani shakllantirish muammosi bo'yicha o'tkazilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki strategik kompetensiya masalasini ingliz tilshunoslari M.Kanal va M.Sueyn muloqotda muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelgan yoki uni buzish xavfi ostida bo'lgan hollarda qo'llaniladigan og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot strategiyalari majmui sifatida belgilangan. Tadqiqotimizning asosiy konsepsiyasi bo'lgan

“strategik kompetensiya” kompetensiya va strategiya kabi ikkita komponentlardan tashkil topadi.

Aksariyat tadqiqotchilar tomonidan chet tilidagi kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida strategik kompetensiya ko‘rib chiqilgan. Biroq, ushbu kompetensiya chet tili muammolarini hal qilishning maqbul usullarini izlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramay muloqot faoliyatida ushbu konsepsiyaning mazmuni haqida munozaralar bir necha o‘n yillar davomida davom etmoqda. Natijada strategik kompetensiyaning turlari tadqiqotlarda shakllana boshlandi.

Strategik kompetensiya – bu kommunikativ maqsadga iloji boricha samarali erishish uchun olingan bilim va ko‘nikmalarga asoslangan strategiyalarning yetarli repertuaridan foydalanish qobiliyati⁴.

Demak, strategik kompetensiya – kompensator ko‘nikma va qobiliyatlarni (talabalarining muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish qobiliyati) o‘rganish ko‘nikmalarini (olingan bilimlardan mustaqil foydalanish va o‘z bilimlari va boshqa odamlarning bilimlarini to‘g‘ri baholash qobiliyati) o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotchi R.Oksford tomonidan aniqlangan o‘quv strategiyalarni o‘rganishga va rivojlantirish juhatlariga tadqiqotimizda ahamiyat qaratdik. O‘quv strategiyalariga quyidagilar kiradi:

o‘rganilayotgan chet tilida muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan tilning tarkibiy elementlarini (grammatik, leksik, fonetik) bilish va ularni og‘zaki va yozma muloqot holatlarida qo‘llash ko‘nikma va malakalari;

chet tilida muloqot qilishda zarur bo‘lgan nutqni tashkil etuvchi formulalar to‘plamini bilish va egallash;

ko‘p tilli suhbatdoshlar o‘rtasida aloqa va o‘zaro tushunishni o‘rnatishga imkon beradigan og‘zaki niyatni amalga oshirish qobiliyati;

til va nutq hodisalarining milliy-madaniy xususiyatlarini bilish;

chet tilidagi aloqa jarayonida kommunikativ qiyinchilik sharoitida og‘zaki kompensator vositalarini bilish;

til, pragmatik va ijtimoiy-madaniy tabiatni to‘ldirish uchun ishlatiladigan o‘rganilayotgan chet tili madaniyati vakillarining kommunikativ xatti-harakatlarining og‘zaki bo‘lmagan elementlari haqidagi bilimlar;

muloqotdagi qiyinchiliklarni yengish uchun og‘zaki yoki og‘zaki bo‘lmagan kompensator vositalaridan foydalanish ko‘nikmalari va qobiliyatlari⁵.

Tadqiqotchi T.I.Timofeyeva tomonidan nutq faoliyati turlariga asosan kognitiv, ijtimoiy-affektiv va metakognitiv strategiyalar aniqlangan⁶. Ammo

⁴ Формирование стратегической компетенции как компонента иноязычной коммуникативной компетенции. Электронный ресурс: Формирование стратегической компетенции как компонента иноязычной коммуникативной компетенции (infourok.ru). Дата обращения: 20.10.2022.

⁵ Стратегическая компетенция в овладении иностранным языком. Электронный ресурс: Стратегическая компетенция в овладении иностранным языком. Образовательная социальная сеть (nsportal.ru). Дата обращения: 20.10.2022.

bizning tadqiqotimizda tadqiqotchi R.Oksford tomonidan aniqlangan o‘quv strategiyalarga mos holatda rejalashtirish, amaliyotga tatbiq etish, nazorat qilish va korreksiyalash kabi kommunikativ faoliyat bosqichlarini tavsiya etamiz (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

O‘quv strategiyalariga kommunikativ faoliyat bosqichlari

№	Nutq faoliyati turlari	O‘quv strategiyalari	Kommunikativ faoliyat bosqichlari			
			rejalashtirish	amaliyotga tatbiq etish	nazorat qilish	korreksiyalash
1.	Gapirish	yodlash strategiyalari	+	+	+	+
		kognitiv strategiyalar	+	+	+	+
		kompensator strategiyalari	+	+	+	+
		metakognitiv strategiyalar	+	+	+	+
		affektiv strategiyalar	+	+	+	+
		ijtimoiy strategiyalar	+	+	+	+
2.	Yozish	yodlash strategiyalari	+	+	+	+
		kognitiv strategiyalar	+	+	+	+
		kompensator strategiyalari	+	+	+	+
		metakognitiv strategiyalar	+	+	+	+
		affektiv strategiyalar	+	+	+	+
		ijtimoiy strategiyalar	+	+	+	+
3.	O‘qish	yodlash strategiyalari	+	+	+	+
		kognitiv strategiyalar	+	+	+	+
		kompensator strategiyalari	+	+	+	+
		metakognitiv strategiyalar	+	+	+	+
		affektiv strategiyalar	+	+	+	+
		ijtimoiy strategiyalar	+	+	+	+
4.	Tinglash	yodlash strategiyalari	+	+	+	+
		kognitiv strategiyalar	+	+	+	+
		kompensator strategiyalari	+	+	+	+
		metakognitiv strategiyalar	+	+	+	+
		affektiv strategiyalar	+	+	+	+
		ijtimoiy strategiyalar	+	+	+	+

Ona tili bo‘lmagan tilda strategik kompetensiya – bu ikkinchi darajali lingvistik shaxsning nutq xatti-harakati strategiyasini tanlash qobiliyati, tilning ifoda vositalari nutq niyatlari, vaziyatlarga mos keladigan muayyan pragmatik parametrlar va o‘rganilayotgan tilning lingvomadaniyatiga mos keladi, qaysiki u tilni o‘zlashtirish jarayonida shakllanadi va lingvistik shaxsning qobiliyatiga

⁶ Тимофеева Т.И. Формирование стратегической компетенции у студентов в коммуникативной деятельности в процессе обучения иностранному языку. – Ульяновск: УлГТУ, 2011. – 136 с.

asoslanadigan kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlarini (lingvistik va ekstralingvistik) amalga oshirish tildan kommunikativ foydalanish tushuniladi⁷.

Strategik kompetensiyani rivojlantirishda uzoq muddatli Tom Uotson modeli yordamida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:


amalga oshiriladigan ehtiyojlar, qiziqishlar, motivlarni aniqlash muloqot vaqtida aniqlanadi. Ushbu vazifani hal qilish jarayonida suhbatdoshlarning strategik jihatdan muhim masalalarni hal qilish uchun bir-biriga bo'lgan qiziqishi shakllanadi;

ilmiy va nazariy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan maqsadlarni belgilash va kasbiy ko'nikmalarni amalga oshirishda shaxsiy tajribadan foydalanish. Bunday holda, belgilangan maqsadga erishish vositalari va usullarini tanlashda o'z nuqtai nazarini asoslash qobiliyati rivojlanadi;

vaziyatni, harakatlarni va motivlarni yaxlit tahlil qilishga imkon beradigan strategiyalarni tanlash. Ushbu muammoni hal qilish talabalarga turli xil strategiyalarni taqdim etish orqali yordam beradi, ulardan eng samaralilari tanlanadi;

olingan tajribani tahlil qilish⁸.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, biz talabalar strategik kompetensiyasining quyidagi komponentlarini ajratib chiqdik: *kognitiv*; *motivatsion*; *interaktiv faoliyat* (1-rasmga qarang):



1-rasm. Talabalar strategik kompetensiyasining komponentlari

⁷ Утебалиева Г.Е., Есбулатова Р.М. Стратегическая компетенция как объект исследования в лингвистике // Вестник КазНУ. Серия филологическая. – № 4 (156). 2015. – С. 54-58. – С. 57.

⁸ Ахметжанова Г.В., Емельянова Т.В., Семенова Ю.В. Повышение уровня развития стратегической компетенции студентов колледжа // МНИЖ. 2021. №1-4 (103). Электронный ресурс: <https://cyberleninka.ru/article/n/povyshenie-urovnya-razvitiya-strategicheskoy-kompetentsii-studentov-kolledzha>. (Murojaat qilingan sana: 10.06.2023).

Ushbu komponentlar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1. *Kognitiv komponent*. Ushbu komponent nomi shaxsning kognitiv nazariyasidan (Cognitive theory) olinib, u kognitiv jarayonlarga (fikr yuritish, anglash, hukm chiqarish) alohida ahamiyat beradi⁹. Adabiyotlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, kognitiv komponent dunyo va o'zimiz haqimizda ahamiyatli ma'lumotlarni olish usullarini egallash, o'zini axloqiy shaxs sifatida anglash bilan bog'liq; o'zini tanish, o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish, maqsad qo'yish usullari haqidagi bilimlar va tasavvurlarning rivojlanishini o'z ichiga oladi. Shu tarzda, strategik kompetensiya strukturasi ichidagi kognitiv komponent talabalar tomonidan kommunikativ strategiyalar haqida bilish darajasini ta'minlaydi, bunda bu bilim egallanadi va erkin ravishda qayta tiklanishi mumkin.

2. *Motivatsion komponent*. Motivatsion komponent talabalarning dunyo, faoliyat, odamlar, o'zlari, qobiliyatlari, ularning rivojlanishiga nisbatan motivatsion-qiymatli va hissiy-irodali munosabatlar tizimini asoslash imkonini beradi. U motivlar, maqsadlar, professional ta'lim olish, o'zini-o'zi tarbiyalash, o'zini rivojlantirish talablarni o'z ichiga oladi. Motivatsion komponent shaxsiyatning ijodiy namoyon bo'lishini rag'batlantiradi va professional faoliyatga bo'lgan qiziqishni, bilimga ehtiyojni, samarali tashkil etish va o'zaro faoliyat ko'nikmalarini egallashni o'z ichiga oladi.

3. *Interaktiv-faoliyat komponenti*. Interaksiya, bir tomondan, ta'lim jarayonining sub'ektlari o'rtasida bevosita o'zaro ta'sirda, ularning harakatlarini muvofiqlashtirishda, hamkorlikda, o'zaro tushunishda amalga oshadi; boshqa tomondan, bunday o'zaro ta'sir jarayonida talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar amalga oshiriladi va ularda tegishli ko'nikmalar va malakalar shakllanadi. M.R. Bityanova fikriga ko'ra, interaksiya bu o'zaro harakatlar almashinuvidir, ya'ni shaxslar o'rtasida shaxslararo o'zaro ta'sirni tashkil etishdir¹⁰. Shu tarzda, interaktiv-faoliyat komponentini shakllantirish talabalarning kommunikativ faoliyatdagi strategik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini nazorat qilish va tuzatish, bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish vazifalarini hal qilishga yordam beradi.

Neft-gaz sanoati terminologiyasi umumiy holda 2 terminologik turga ajratiladi: 1) neft-gaz qazib olish; 2) neft va gazni qayta ishlash. Terminologik birliklarni tahlil qilishimiz quyidagi mavzuiy guruhlarini aniqlashga imkon berdi: 1) moddalar; 2) neft-gaz geofizikasi; 3) neft-gazni qayta ishlash mahsulotlari; 4) neft-gazni qayta ishlash moddalari va mahsulotlarining xususiyatlari; 5) texnologik jarayonlar va operatsiyalar; 6) jihozlar va uskunalar; 7) neft-gaz sanoatida ishlab chiqarish, tashish va realizatsiya qilish ishtirokchilari; 8) neft-gaz qazib olish sohasidagi hujjatlar. Namuna sifatida «Moddalar» terminlari: kislorod / *oxygen*, okisalyumin / *aluminum oxide*, silikagel / *silica gel*, suv fazasi / *aqueous phase*, yuqori oktanti qo'shimcha / *high-octant additive*, distillyat / *distillate*, ochiq

⁹ Психологический словарь. 3-е изд., доп. и перераб. / Авт.-сост. В. Н. Копорулина, М. Н. Смирнова, Н. О. Гордеева. – Ростов н/Д: Феникс, 2004. – 640 с.

¹⁰ Битянова, М. Р. Социальная психология: [Текст] / М. Р. Битянова. – М.: Международная педагогическая академия, 1994. – 106 с.

rangli distillyat / *light distillate*, fraksiya / *fraction*, uglevodorod / *hydrocarbon*, yengil uglevodorod / *light hydrocarbon*, marginal uglevodorodlar / *marginal hydrocarbons*, to'yingan uglevodorodlar / *saturated hydrocarbons*, dienlar / *dienes*, izomerizat / *isomerizate*, petroleyli efir / *petroleum ether*, fulleren / *fullerene*, neft kreking gazi / *petroleum cracking gas*, alkanlar / *alkans*.

Umuman olganda, tarjimalarning ma'nosi mazmunga bog'liq: ... *analogous projects of optimal development of oil and/or gas fields* – neft konlarini rivojlantirishni birlashtirish bo'yicha analogik loyihalar. Ushbu terminning boshqa ma'nolari ham mavjud: *development of heat* – issiqlik tarqalishi, issiqlik hosil bo'lishi; *advanced development* – tajribani ishlab chiqish; *crestal development* – neft konini markazdan rivojlantirish; *delayed development* – konni bir vaqtning o'zida ishlatish bilan sekin burg'ulash; *early development* – dastlabki rivojlanish, konni qazib olishning dastlabki davri; *marginal development* – konni atrofdan markazga burg'ulash; *field development* – neft konini qazib olish; *recent development* – oxirgi rivojlanishlar, texnikaning so'nggi yutuqlari; *wave development* – to'lqinlarni shakllanishi.

Shuningdek, neft-gaz sanoatiga oid terminlar tizimining maxsus guruhi ilmiy-texnik frazeologik birliklar sifatida hamda zoonimlar bo'lib xizmat qiladi. Masalan: *wildcat* – qidiruv qudug'i; *monkey board* – ploщadka dlya verxovogo rabochego; *pipe dog* – truba kaliti; *rabbit* – quvurni tozalash uchun qirg'ich; *butterfly* – bitiruv klapani; *doghouse* – burg'ulash ustasining treyler kabinasi; *snake* – asbest shnuri; arqonning uchini dastgohning yuqori qismiga bog'laydigan qurilma; *dog leg* – quduqning keskin egriligi; *nodding donkey* – tebranadigan nasos¹¹.

Shunday qilib, sohaviy terminlarni ingliz tilidan tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish uchun maxsus adabiyotlar va yuqori sifatli, doimiy yangilanib turadigan ma'lumotnomalarni o'rganish kerak.

Dissertatsiyaning **“Neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitish metodikasi”**, deb nomlangan ikkinchi bobida neft-gaz sanoatiga oid o'quv resurslari, mashqlar va topshiriqlarni tanlash tamoyillari, amaliy mashg'ulotlarni neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitish jarayonida didaktik vositalar orqali mashqlardan foydalanish metodikasi hamda mustaqil ta'limda neft-gaz sanoatiga oid terminlar o'qitishda grafik organayzerlardan foydalanishi yoritilgan.

Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishining 1-2-bosqich talabalariga “Xorijiy til” fani 356 soat hajmda o'qitilib, auditoriya soatiga 216 soat, mustaqil ta'limga 140 soat ajratilgan.

Hozirgi kunda ingliz tilini o'rganish jarayonida bir qator yondashuvlar, tamoyillar, texnologiyalar va metodlar taklif etilgan. Shu bilan birga, bu atamalar o'zaro bog'liq bo'lib, birgalikda yagona tizimni tashkil etadi, ya'ni *yondashuv*, *tamoyil*, *texnologiya* va *metodlarning* to'plami metodik tizimni shakllantiradi. Bu nuqtai nazardan, “yondashuv” tilni o'rgatish va o'rganish jarayonlarini aniqlash

¹¹ Тимирьянов П.В. Особенности нефтегазовой терминологии как ключевой фактор в работе нефтегазового переводчика. – С. 242-248. Электрон ресурс: Особенности нефтегазовой терминологии как ключевой фактор в работе нефтегазового переводчика (urfu.ru)

uchun ishlatiladigan taxminlar to'plamidir. "Metod" esa til materialini o'rganishga yo'naltirilgan rejalashtirilgan usulni anglatadi. *Tamoyil (prinsip)* esa o'quv jarayonini aks ettiruvchi metodik hodisadir.

Bizga Yevropa Kengashi ekspertlarining va "Ummum Evropa kompetensiyalar" mualliflarining konsepsiyasi e'tiborimizni tortdi, ular turli xil nutqiy faoliyat turlarini amalga oshirishda strategiyalarning turli yo'nalishlaridan foydalanish nuqtai nazarini qo'llaydilar, shu bilan birga qabul qilgan¹²: *reseptiv* (tinglash va o'qish), *produktiv* (so'zlash va yozish), *interaktiv* (yozma shakldagi dialogik o'zaro aloqa) va *mediativ nutqiy faoliyat* (talqin, tarjima). Shu bilan birga, "Ummum Evropa kompetensiyalar"da tasvirlangan strategiyalar bloklari quyidagilar uchun ishlatiladi: – matnlarni yaratish; – matnlarni qabul qilish; – interaksiya; – mediatsiya. Strategiyalarni qo'llash, olimlar tomonidan turli xil kommunikativ faoliyat turlariga qo'llanadigan quyidagi tamoyillar sifatida qaraladi: *rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat va tuzatish*.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha to'plangan ma'lumotga ko'ra, biz "Ummum Evropa kompetensiyalar" tasvirlagan tamoyillarga asoslanib, neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitishda talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida *rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat va tuzatish* tamoyillarini ko'rib chiqdik:

Rejalashtirish: – takrorlash; – auditoriya xususiyatlarini hisobga olish; – ma'lumot manbalariga murojaat qilish; – vazifani tuzatish; – mazmun bo'yicha ifodani tuzatish.

Amalga oshirish: – mavjud bilimlarga tayanish; – ifodani tuzishga harakat qilish.

Nazorat: – muvaffaqiyatni nazorat qilish.

Tuzatish: – xatolarni tuzatish; – xatolarni mustaqil tuzatish.

Shu tarzda, talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini nazorat qilish va tuzatish, bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish vazifalarini hal qilishga yordam beradi.

Neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitishda o'quv resurslarini tanlash tamoyillari quyidagicha tanlandi:

o'quv qo'llanma, darslik va uslubiy qo'llanmalarni tahlil qilish;

elektron resurslar (platforma, sayt, ijtimoiy tarmoqlar)ni tanlash;

masofaviy ta'lim kurslarini aniqlash;

nashriy va elektron lug'atlar bilan ishlash.

Neft-gaz sanoatiga oid mashqlar va topshiriqlarni tanlash tamoyillari quyidagicha tanlanadi:

1) talabalarning bilish va kommunikativ ehtiyojini hisobga olish;

2) talabalarning kognitiv bilish jarayonlari orqali leksik boyligini hisobga olish;

3) talabalarning axboriy-bilish jarayonlari orqali leksik bilim va birliklarini o'zlashtirish;

¹² Общеввропейские компетенции владения иностранным языком: Изучение, преподавание, оценка. Департамент современных языков. – Страсбург, 2001. – 256 с.

4) sohaviy terminlarni o'qitish o'quv strategiyalarini rivojlantirishga mos kelishi;

5) o'rganilayotgan sohaga yo'naltirilgan lug'at tezaurus tamoyillariga mos kelishi, konseptual lug'at prinsipiga muvofiq tashkil etilishi lozim;

6) leksik birliklar strategik kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qilishi kerak.


Biz olimlarning qarashlarini qo'llab-quvvatlagan holda, nutq faoliyatining to'rt turini integratsiyalab qo'llashga yo'naltirilgan mashqlar tizimini tavsiya etamiz. Taklif qilingan mashqlar tizimi P.Ya. Galperin va uning izdoshlari tomonidan aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi to'g'risidagi konsepsiya va ketma-ketlik didaktik prinsipiga asoslanadi. Demak, nutq faoliyati turlari bo'yicha quyidagi mashqlar tizimini tavsiya etamiz va ularni batafsil jadvalda ochib beramiz (1-jadvalga qarang):

2-jadval.

Neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitishda nutq faoliyati asosidagi mashqlar tizimi¹³

Nutq faoliyati turlari				
No	Mashqlar tizimi		Mashqlar turlari	
1.	Reseptiv-informativ		Listening training / Tinglash bo'yicha mashg'ulot	o'rganish va turli kategoriyalardagi mazmunli ma'lumotni izolyatsiya qilish bo'yicha mashqlar matnlarni tinglash va ularning grafik matndagi joylarini topish, bo'shliqni aniqlash, jumalarni mantiqan tartiblash va tezislar uchun kalit so'zlarni tanlashni o'z ichiga oladi.
			Exercises for the development of auditory memory, attention, imagination / Eshitish xotirasini, diqqatni, tasavvurni rivojlantirish uchun mashqlar	tegishli iboralarini tinglash, ularni takrorlash va tegishli harakatlarni bajarish hamda jumalarni mantiqan tartiblash, yangi elementlarni aniqlash va tez gapirilgan jumalarni bajarish va taqqoslashda yozma va og'zaki shakllarni solishtirish kabi mashqlar kiradi.
2.	Reproduktiv-konstruktiv		Learning to read / O'qishni o'rganish	so'z turini aniqlash, so'zlarni ajratish, bo'shliqni to'ldirish, fonetik va grafik o'xshashlik orqali ma'nolarni aniqlash, xalqaro so'zlarni, polisemantlarni va matndagi yo'q so'zlarni topish, shuningdek, fe'llarni almashtirish uchun iboralar ishlatish kiradi
			Reading content prediction exercises / Mazmunni o'qish bo'yicha mashqlar	matnda mazmunni tahlil qilishga oid strukturaviy yondashuv, qisqacha izoh berish, savollarni aniqlash, mantiqiylikni ta'minlash va tinish belgilarini tiklash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan
			Exercises for semantic prediction of the content of the text / Matn mazmunini semantik tuzatish uchun mashqlar	matndan signal so'zlarini so'z turiga, semantik kategoriyalariga va ahamiyatiga qarab aniqlash va tasniflash, ma'lumotning ahamiyatini aniqlash, matn strukturasi ko'rib chiqib, tushunishni yaxshilash va turli manbalardan tegishli tafsilotlarni yig'ish
			Text content prediction exercises / Matn mazmunini bashorat qilish mashqlari	matnda o'qish materiallaridagi nomlar, tasvirlar va kirish qismlariga asoslanib taxminlar qilish, so'ngra keng qamrovli o'qish orqali ularni tekshirish, tushunish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi

¹³ Muallif ishlanmasi.

3.	Situativ-kommunikativ		Forecasting exercises at the language level / Til darajasida bashorat qilish mashqlari	Talabalar tinglab yoki o'qib bo'lganidan so'ng, tinglagan va o'qigan jumlni integratsiya qilish orqali berilgan hikoyani gapirib beradilar, tegishli jumalarni tuzib, mantiqan ifodalarni bog'lash yordamida.
			Communicative exercises / Kommunikativ mashqlari	Ushbu mashqida talabalar berilgan mavzu bo'yicha o'rtoqlashib, kengashadilar va birgalikda ssenariy yozadilar. So'ngra uni o'qib chiqadilar va rollarga bo'linib ijro etadilar. Yakunida o'ynagan rollaridan qoniqdirlarmi yoki yo'qmi, yana rol o'ynasalar qaysi xatoni qilmagan bo'lar edingiz, nima uchun kabi savollarga yozma javob yozadilar
4.	Produktiv-integrativ		Learning to write / Yozishni o'rganish	talabalar mavzuda o'rta tashlangan muammoni topishga harakat qiladilar va daftarlariga qisqacha yozib ketadilar. Guruhlar bilan ishlaganlarida esa javoblarini solishtirib to'g'ri javob tanlanadi va guruh yordamida yechim topilib yoziladi
			Critical writing / Tanqidiy yozish	Talaba olingan ma'lumot bo'yicha yuqoridagi til ko'nikmalarini integratsiya qilish asosida tanqidiy va mantiqiy fikrlash, g'oyalar asosida mulohazali yozish konikmalarini rivojlantiradi

Demak, yuqorida keltirilgan jadvaldagi mashqlar tizimi quyidagilarni anglatadi:

1. *Reseptiv-informativ* mashqlar turiga tinglab tushunish (Listening) nutq ko'nikmasi tanlangan bo'lib, u: *tinglash bo'yicha mashg'ulot* (Listening training), *eshitish xotirasini, diqqatni, tasavvurni, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun mashqlar* (Exercises for the development of auditory memory, attention, imagination, logical thinking)ga ajratildi;

2. *Reproduktiv-konstruktiv* mashqlar turiga o'qish (Reading) tanlangan: *o'qishni o'rganish* (Learning to read); *mazmunni o'qish bo'yicha mashqlar* (Reading content prediction exercises), *matn mazmunini semantik tuzatish uchun mashqlar* (Exercises for semantic prediction of the content of the text), *matn mazmunini bashorat qilish mashqlari* (Text content prediction exercises);


3. *Situativ-kommunikativ* mashqlar turiga gapirish (Speaking) ko'nikmasi tanlangan bo'lib, u: *til darajasida bashorat qilish mashqlari* (Forecasting exercises at the language level) va *kommunikativ mashqlari* (Communicative exercises)ga ajratildi;

4. *Produktiv-integrativ* mashqlar turiga yozish (Writing) ko'nikmasi tanlangan bo'lib, u: *yozishni o'rganish* (Learning to write) va *tanqidiy yozish* (Critical writing) ga ajratildi.

